4K TAMOYILI ASOSIDA O‘QUVCHILARNING SHAXSLARARO MULOQOT KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Rahmonov O.B.
Navoiy shahri 18-umumta’lim maktabi direktori

Tayanch so‘zlar: 4K modeli, shaxslararo muloqot, ko‘nikma, model, ta’lim siyosati, kompetensiya.

Ключевые слова: 4К-модель, межличностное общение, навык, модель, образовательная политика, компетенция.

Key words: 4K model, interpersonal communication, skill, model, educational policy, competence.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-dekabr kuni Xalqaro kongress markazida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir!” mavzusidagi zamonaviy darsliklar ko‘rgazmasida: “XXI asr kishisi uchun eng zarur bo‘lgan “4K” ko‘nikmasi bo‘yicha ishlab chiqilgan (kritik fikrlash, kreativlik, kollaboratsiya, kommunikatsiya) ko‘nikmalar, o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish” masalalariga alohida e’tibor qaratish va “...darsliklar quruq ma’lumotlarni yodlatish, yoki shunchaki o‘qish-yozishni o‘rgatish bilan cheklanmasligi, ular orqali o‘quvchilar nafaqat fanlarni, balki XXI asrda zarur bo‘lgan hayotiy ko‘nikmalarni ham o‘rganishi” zarurligini ta’kidlash bilan birga, yangi darsliklarni tayyorlashda o‘qituvchilar majburiyatlari haqida “...bugun darsliklar o‘zgaryapti. Shunga yarasha o‘qituvchilar ham o‘zgarishi kerak” [1] , - deb aytgan fikrlari 4K tamoyili asoida o‘quvchilarning nutqiy qoiliyatnini rivojlantirish jarayonini yana da kuchayttirishni talab qiladi. 2023-yildan maktab ta’limini xalqaro ta’lim dasturlari asosida butunlay isloh qilish таълимни tizimli yo‘lga qo‘yish, yangi darsliklarni ishlab chiqish, ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriyalar tashkillashtiradi.

XXI asr ko‘nikmalari hayot uchun yeng muhim sifatida turli sohalardagi mutaxassislar tayyorlashda hayot uchun eng ahamiyatli deb bilgan ko‘nikmalar: xarakterni tarbiyalash, fuqarolik savodxonligi, aloqa, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish, hamkorlik, kreativlik ko‘nikmalari asosiylardan hisoblanadi. Bizningcha, 4K modeli asosida o‘quvchilarning shaxslararo muloqat ko‘nikmalarini “Tarbiya” fani darsi va “Ma’naviyat soat”lari orqali o‘quvchilarning XXI asr ko‘nikmalari uchun xarakter hususiyati ahamiyatli hisoblanadi.

Birinchi savolga javob berishdan boshlaylik. Keling, "4K" ko‘nikmalarining tuzilishini ko‘rib chiqamiz va ularning tarkibiy qismlarini ta’kidlaymiz. Keyin biz ushbu tarkibiy qismlarni o‘zaro bog‘lagan holda bugungi kunda amaldagi O‘zbeksiton Respublikasi davlat ta’lim standartini o‘rganib chiqamiz.

O‘zbeksiton Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [2] muhim o‘quv natijalari sifatida rivojlanish e’lon qilindi. Bu masalada 4K tamoyili asosida o‘quvchilarning shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda mustaqil fikrlash, muammoli va ijodiy muammolarni kreativ hal qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirmasdan shakllantirish mumkin emas. Ushbu XXI asr ko‘nikmalari “Tarbiya” darslari va “Ma’naviyat darslari” orqali shakllantirish mamlakatning analitik salohiyatini mustahkamlashga ko‘maklashishi mumkin hisoblanadi.



Umumta’lim maktab amaliyotida an'anaviy dars doirasida ushbu 4K ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradigan pedagogik texnologiyalar mavjud emas. Bundan tashqari, davlat ta’lim standartlari doirasida o‘quvchilarning nutqiy ko‘nikmasini shakllantirishga qaratilgan aniq tavsif va qoidalar kontentini yaratish maqsadi qo‘yildi. Biz tadqiqot ishimiz doirasi ushbu XXI asr ko‘nikmalarini 4K modeli asosida o‘quvchilarning shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga etiborimizni qaratdik.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi [3] Qarori asosida XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi vositalar asosida o‘quvchilarning shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradigan mexanizm yaratish maqsad qilindi.

Biz tadqiqot ishimizda XXI asr ko‘nikmalari asosida shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish va unga qo‘yiladigan talablarni qo‘yidagicha belgilab oldik.

Asosiy turlari savodxonlik	XXI asr ko‘nikmalari	Xarakter fazilatlari
til	tanqidiy fikrlash	qiziqish
raqamli	kreativ	tashabbuskor
tabiiy-ilmiy	kommunikatsiya	qat’iylik
AKT savodxonligi	kooperatsiya	moslashuvchanlik
ta’lim-tarbiyaviy	shaxslararo munosabat	etakchilik
umummadaniy	fuqarolik va madaniy	ijtimoiy va madaniy xabardorlik

Ushbu maqsadlar bo‘yicha biz tadqiqotga doir rejalashtirilgan maqsadlarni belgilab oldik. Bularni ikki guruhga ajratdik.



Meta-subektiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir masalalar:

– 4K modeli asosida fandan shaxsiy ko‘nikmalar;
– shaxslararo muloqщt ko‘nikmalarini o‘rganish uchun motivatsiyani shakllantirish;
– shaxslararo muloqщt ko‘nikmalari orqali o‘z-o‘zini anglash imkoniyatlarini;
– muloqщt ko‘nikmalarini madaniyatini yaxshilashga intilish;
– kreativlik va tashabbuskorlik kabi fazilatlarni rivojlantirish.

Meta-obyektiv ko‘nikmalarni rivojlantirishga doir masalalar qo‘yidagicha keltirilgan:

– kommunikatsiya jarayonida verbal va noverbal qobiliyatini rejalashtirish;
– kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish, shu jumladan ular bilan muloqot qilish qobiliyati va turli xil ijtimoiy rollarni bajarish;
– ilmiy-tadqiqot mashg‘ulotlarini, shu jumladan ular bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish:
– kerakli ma’lumotlarni qidirish va tanlash, ma’lumotlarni umumlashtirish va mahkamlash;

– semantik o‘qishni rivojlantirish, shu jumladan mavzuni aniqlash, bashorat qilish qobiliyati;
– sarlavha, kalit so‘zlar bilan matn mazmunini tushinish, asosiy fikr, asosiy ta’kidlash;
– ikkinchi darajali faktlarni qoldirib, asosiy mantiqiy faktlar ketma-ketligini o‘rnatish;
– o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish harakatlarini amalga oshirish;
– shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini jarayonini baholashlarga qaratildi.

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi qo‘yidagicha yondashiladi:
– o‘z istagini shakllantirish va uzluksiz ta’lim olishni rivojlantirish;
– o‘quvchilarning o‘quv va kognitiv faoliyatini rivojlantirishga qaratiladi [4].

Jamoada biron bir harakatni amalga oshirishda aloqa va hamkorlik yoki kreativlik "4K" ning boshqa tarkibiy qismlariga qaraganda osonroq tavsiflanadi, chunki bu ko‘nikmalar tashqi ko‘rinishda insonda ko‘proq namoyon bo‘ladigan hislatlar hisoblanadi va bbularni kuzatish osonroq bo‘ladi.

Adabiyotlar:

1. https://uza.uz/uz/posts/darsliklar-ozgaryapti-shunga-yarasha-oqituvchilar-ham-ozgarishi-kerak_440060.

2. 187-сон 06.04.2017. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida (lex.uz)

3. Bekimbetova G.R. Qoraqalpoq tili fanidan o‘quvchilarning 4K ko‘nikmalarini rivojlantirishning amaliy ahamiyati // International journal of recentli scientific researcher’s theory. International scientific journal. ResearchBib Imfact Factor: 7.1. Volume: 2. Issue: 2. February. 2024. ISSN: 2992-8885. uzresearchers.com. –P.185-190.

4. Bekimbetova G.R. 4K tamoyili asosida o‘quvchilarning Qoraqalpoq tili fanidan kolloborativ ko‘nikmalarini rivojlantirish paradigmasi // International journal of recentli scientific researcher’s theory. International scientific journal. ResearchBib Imfact Factor: 7.1. Volume: 2. Issue: 2. February. 2024. ISSN: 2992-8885. uzresearchers.com. –P.191-198. (13.00.00; №14).

РЕЗЮМЕ

Maqolada 4K tamoyili asosida o‘quvchilarning shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari haqida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы развития навыков межличностного общения студентов по принципу 4К.

SUMMARY

The article discusses the issues of developing students' interpersonal communication skills based on the 4K principle.